

BUXORO SHAHRINING YOSHI MASALASINING "BUXORO HAQIQATI" GAZETASIDA YORITILISHI: YOZMA MANBALAR VA ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrining yoshi masalasi bo'yicha o'zbek va sovet tarixshunosligida to'plangan yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilinadi. X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi Siyovush afsonasiga asoslangan ma'lumotlar, shuningdek O.V.Obelchenko, R.Sulaymonov va Ya.G'.G'ulomov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyalarning 1968–1981-yillarda Ark, Shahrison va Poykand atrofida olib borgan qazishma natijalari o'rganiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, shaharning eng qadimgi madaniy qatlamlari eramizgacha bo'lgan IV-III asrlarga oid bo'lib, bu Buxoroning taxminan 2300-2500 yillik tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi. Maqolada shahar yoshini aniqroq belgilashda yozma va moddiy manbalarni birlashtirgan kompleks metodning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Narshaxiy, Poykend, arxeologik qazishma, madaniy qatlam, Ark, Shahrison, Zarirud, Kushan davri.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСА О ВОЗРАСТЕ ГОРОДА БУХАРЫ В ГАЗЕТЕ „БУХОРО ҲАҚИҚАТИ“: АНАЛИЗ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ И АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ письменных источников и результатов археологических исследований, накопленных в узбекской и советской историографии по вопросу о возрасте города Бухары. Рассматриваются сведения, основанные на легенде о Сиявусе, содержащиеся в труде историка X века Мухаммада Наршахи «История Бухары», а также результаты археологических раскопок, проведённых в 1968-1981 годах археологическими экспедициями под руководством О. В. Обельченко, Р. Сулейманова и Я. Г. Гулямова на территории Арка, Шахристана и в окрестностях Пайкенда. Исследование показывает, что наиболее древние культурные слои города относятся к IV-III векам до н. э., что подтверждает наличие у Бухары приблизительно 2300–2500-летней истории. В статье обосновывается значение комплексного метода, объединяющего письменные и материальные источники, для более точного определения возраста города.

Ключевые слова: Бухара, Наршахи, Пайкент, археологические раскопки, культурный слой, Арк, Шахристан, Зарируд, кушанский период.

THE ISSUE OF THE AGE OF THE CITY OF BUKHARA IN THE "BUKHARA HAQIQATI" NEWSPAPER: AN ANALYSIS OF WRITTEN SOURCES AND ARCHAEOLOGICAL RESEARCH

Annotation: This article offers a comparative analysis of written sources and archaeological findings accumulated in Uzbek and Soviet historiography concerning the age of the city of Bukhara. It examines the legend of Siyovush recorded in the tenth-century historian Muhammad Narshakhi's "History of Bukhara" alongside the results of archaeological expeditions led by O.V. Obelchenko, R. Sulaymonov, and Ya.G. G'ulomov conducted between 1968 and 1981 at the Ark citadel, the Shahrison quarter, and the site of Paykand. The study demonstrates that the earliest cultural layers of the city date to the fourth-third centuries BCE, confirming that Bukhara possesses a history of approximately 2,300-2,500 years. The article

20 further substantiates the importance of a combined methodology, uniting written and material sources, for a more precise determination of the city's age.

Key words: Bukhara, Narshakhi, Siyovush, archaeological excavation, cultural layer, Ark, Shahriston, Zarirud, Kushan period.

KIRISH (INTRODUCTION). Buxoro Sharqning eng qadimiy va shu bilan birga o'z haqiqiy yoshini uzoq vaqt davomida "sir tutib" kelgan shaharlaridan biri hisoblanadi. O'rta asrlarda "Qubbat-ul islom", "Buxoroyi sharif" kabi faxrli nomlar bilan ataladigan bu shahar Movarounnahrning yirik savdo, hunarmandchilik, ilm-fan va ma'muriy markazlaridan biri sifatida jahonga tanilgan. Ammo uning aniq qachon barpo etilganligi masalasi tarixshunoslikda hamon munozarali bo'lib qolmoqda: turli manbalar va mualliflar shahar yoshini 2000-yildan tortib 4000 yilgacha bo'lgan oraliqda baholaydilar [1].

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, shahar yoshini aniqlash nafaqat mahalliy tarixni chuqurroq anglash, balki Markaziy Osiyoning qadimgi shaharsozlik tarixi, irrigatsiya tizimlarining rivojlanishi va mintaqaviy sivilizatsion jarayonlarning xronologiyasini to'g'ri tiklash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois O'zbekiston SSR (keyinchalik Respublika) Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti tomonidan XX asrning 30-yillaridan boshlab, ayniqsa 1968-1981-yillar mobaynida Buxoro shahri hududida muntazam arxeologik qazishmalar tashkil etilgan [2].

Ushbu maqolaning maqsadi Buxoroning yoshi masalasi bo'yicha mavjud yozma manbalar (birinchi navbatda Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari) bilan arxeologik tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish, ularning bir-biriga mos kelish yoki farqlanish nuqtalarini aniqlash va shahar yoshi bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan xulosaga kelishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Mavzuni o'rganishda mavzu davri nuqtai nazaridan kelib chiqib birlamchi hisoblangan manblar va ularning turli tahlillariga bag'ishlangan qarashlar va fikrlar berilgan adabiyotlarga murojaat qilindi. Ularni quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin.

1. Mavzuni yoritishda asos bo'ladigan matbuot nashrlari
2. Matbuot nashrlarining tahlillariga bag'ishlangan tadqiqotlar

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Buxoro tarixining ilk sahifalari haqidagi eng qadimgi va batafsil yozma manba X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" ("Tarixi Narshaxiy") asaridir. Narshaxiy shaharning paydo bo'lishini afsonaviy Eron shahzodasi Siyovush nomi bilan bog'laydi: rivoyatga ko'ra, Kaykovus shohning o'g'li Siyovush otasining g'azabidan qochib Turon hukmdori Afrosiyob huzuriga panoh topadi, unga kuyov bo'ladi va unga in'om etilgan yerda Buxoro arkini qurdiradi. Keyinchalik turkiy amaldorlarning fitnasi natijasida Afrosiyob bilan Siyovush orasi buzilib, Siyovush o'ldiriladi va Ark yaqinida dafn etiladi bu voqea xotirasiga buxoroliklar orasida "Mug'lar nolasi" qo'shig'i va navro'z marosimlari bilan bog'liq urf-odatlar saqlanib qolgan [3].

Muhim jihati shundaki, Narshaxiyning o'zi bu voqeadan "3 ming yil o'tgan" deb yozadi, kitob bitilganidan buyon esa yana mingyillik o'tgan demak, an'anaviy hisobda bu Buxoro tarixini 4000 yilga yaqinlashtiradi. Biroq tadqiqotchilar Siyovushning tarixiy shaxs emas, balki Eron afsonaviy an'anasidan (Kayoniylar dinastiyasi haqidagi rivoyatlardan) olingan obraz ekanligini ta'kidlaydilar. Kayoniylar dinastiyasi hukmronligi o'rta asr fors tarixchilari tomonidan Ahamoniylar davlati (eramizdan avvalgi 558-330-yillar) o'rniga targ'ib qilingan afsonaviy davr hisoblanadi. Shu asosda Kaykovus va Siyovushning zamondoshi Afrosiyobning hukmronlik davri eramizdan avvalgi V asrga to'g'ri keltiriladi bu esa Buxoro arkining barpo etilishini taxminan 2500 yil oldingi davrga, ya'ni Samarqanddan keyingi davrga yo'naltiradi [4].

Shunday qilib, yozma manba (Narshaxiy) ikkita farqli xronologik ko'rsatkichni beradi: bir tomondan an'anaviy "3000-4000 yil" rivoyati, ikkinchi tomondan ushbu rivoyat asosidagi voqealarni tarixiy-qiyosiy tahlil qilish natijasida chiqarilgan "2500 yil" xulosasi. Bu ziddiyat aynan shu sababdan yechimini faqat moddiy arxeologik manbalar orqali topishi mumkin edi.

Shahar yoshi masalasini "uzil-kesil" hal qilish maqsadida O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti tomonidan maxsus arxeologik guruh tashkil etilgan. Dastlabki tadqiqotlar hali 1930-yillardayoq sovet arxeologi V.A.Shishkin tomonidan olib borilgan, biroq yer osti suvlarining yuqori darajada bo'lishi qazishmalarni chuqurlashtirishga to'sqinlik qilgan quduqlar tezda suvga to'lib qolgan [5].

Sifat jihatidan yangi bosqich 1968-yildan boshlanadi: O.V.Obelchenko, so'ngra R.Sulaymonov rahbarligidagi guruh Buxoro oblast partiya va ijroiya komitetlarining tashkiliy yordami bilan shahar markazida Ark devori yaqinida hamda Toqi Zargaron bilan tutash qadimgi hindi saroyi o'rnida ikkita yirik qazilma o'tkazadi. Ark devori ostidagi qazilmada 10 metrgacha, ikkinchisida esa 14,5 metrgacha tushib borilib, ikkala nuqtada ham eramiz boshlaridagi Kushan saltanati davriga xos madaniy qatlamlarga yetib borilgan bu shaharning shu paytgacha ma'lum bo'lgan eng qadimgi asosini tashkil etgan [6].

Akademik Ya.G'.G'ulomov boshchiligidagi ekspeditsiya yangi qazish metodini joriy etadi: mayda quduqlar o'rniga katta yer uchastkalarini qudratli ekskavatorlar yordamida ochish. Shu metod asosida 1970-1974 va 1977-1980-yillarda Shahrison maydonida (Mir Arab madrasasi va Toqi Zargaron oralig'ida, taxminan 2500 kv.m maydonda) hamda Arkning sharqiy yalanglik qismida keng ko'lamli qazishmalar o'tkaziladi. Ushbu uchastkalarda madaniy qatlam qalinligi ba'zi joylarda 14 metrga, ba'zilarida esa 20 metr va undan ortiqqa yetgan.

1979–1980-yillarda Arkning o'zida o'tkazilgan qazishmalar ayniqsa muhim natija beradi: birinchi marta uning qadimgi tabiiy yer qatlamigacha (26 metrdan ortiq chuqurlikda) tushib borilgan. Bu yerda 15,5 va 16,5 metr chuqurlikda ikkita qadimgi mudofaa devorining qoldig'i topilgan bo'lib, ulardan biri milodning III-IV asrlariga, ikkinchisi esa eramizgacha bo'lgan IV-III asrlarga oid paxsa devor sifatida aniqlangan [7].

Arxeologik qazishmalar Buxoro shahri hozirgi Ark, Shahrison va robot hududlarida joylashishidan oldin, aslida Zarafshon daryosining qadimgi tarmog'i manbalarda "Zarirud" yoki "Rudizar" nomi bilan tilga olinadigan o'zan bo'ylab uchta alohida qishloq shaklida shakllanganini ko'rsatdi. Ulardan biri keyinchalik Ark bo'lib shakllangan aholi punkti daryoning o'ng sohilida, qolgan ikkitasi Shahrison va uning ustma-ust joylashgan qismlari chap sohilda bo'lgan. Zarirudning eni 75-80 metrga yetgan va bu tabiiy o'zan ilk o'rta asrlarda ham Paykand shahrigacha oqib borgan [8].

Qazilmalarning eng ostki qatlamlarida hali shahar vujudga kelmasdan oldingi davrga oid qalin torf qatlami (ba'zi joylarda 40-70 sm, Mir Arab madrasasi hovlisi ostida esa 7,5 metrgacha) qayd etilgan. Bu torf qatlami hududning avvalida botqoqlik va to'qayzordan iborat bo'lganini, faqat keyinchalik sun'iy sug'orish tizimlari xususan Shohrud kanali vositasida obodonlashtirilganini tasdiqlaydi. Bu ma'lumot Narshaxiyning shahar "ilk bora to'qayzor va botqoqlik" bo'lgan, degan yozma guvohligi bilan mos tushadi [9].

Shahar markazining eng qadimgi madaniy qatlamidan olingan topilmalarning eng ko'hnasi eramizgacha bo'lgan IV-III asrlarga tegishli bo'lib chiqdi. Bu ma'lumot uch mustaqil manba Ark devori ostidagi qazilma, Shahrison maydonidagi qazilma va Arkning o'zidagi 26 metrlik qazilma orqali qat'iy tasdiqlangan. Shunga asoslanib arxeologlar Buxoroning yoshini 2300-2400 yil, keyingi umumlashtirishlarda esa 2500 yil deb belgilashgan bu ko'rsatkich Samarqand uchun arxeologik jihatdan aniqlangan yosh (Afrosiyob tepaligi materiallari asosida 2500 yil) bilan deyarli teng chiqadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, Narshaxiyning "3000-4000 yil" degan an'anaviy rivoyati bevosita tarixiy voqelikni emas, balki afsonaviy-adabiy an'anani aks ettiradi va uni arxeologik dalillar tasdiqlamaydi. Shu bilan birga, xuddi shu manbaning ichki mantig'iy tahlili (Kayoniylar sulolasi xronologiyasi orqali) berilgan "2500 yil" ko'rsatkichi arxeologik topilmalar bilan yaqin mos keladi bu holat yozma manbani sinchiklab, tanqidiy tahlil qilish naqadar muhimligini ko'rsatadi: bitta manbaning o'zi turlicha ishonchlilik darajasiga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlashi mumkin [10].

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, arxeologik qazishmalar ham hozircha shaharning "mutlaq boshlanish nuqtasi"ni emas, balki faqat hozirgi kunga qadar ochib o'rganilgan eng chuqur

- 22 qatlamlarni aks ettiradi. Yer osti suvlarining yuqori darajasi (Shishkinning 1930-yillardagi tajribasi buni yaqqol ko'rsatadi) tadqiqotchilarga hamon jiddiy texnik cheklov bo'lib qolmoqda. Shu sababli mualliflarning ko'pchiligi "Buxoroning yoshi 2500 yil" degan xulosani yakuniy emas, balki hozirgi bilim darajasidagi eng asosli taxmin sifatida taqdim etadilar [11].

Muhim uslubiy xulosa shundan iboratki, faqat yozma manbalarga yoki faqat arxeologik dalillarga tayangan holda shahar yoshini aniqlash mumkin emas ikkala manba turi bir-birini to'ldiruvchi va tekshiruvchi vosita sifatida qo'llanilishi zarur. Aynan shu kompleks yondashuv yozma an'anani tanqidiy filologik tahlil qilish va uni stratigrafik-arxeologik dalillar bilan tekshirish Buxoro va Samarqand kabi qadimgi shaharlar xronologiyasini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi [12].

Xulosa. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Buxoro shahrining yoshi masalasi bo'yicha yozma va arxeologik manbalarni qiyosiy o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- 1) Narshaxiyning an'anaviy rivoyatidagi "3000-4000 yil" ko'rsatkichi tarixiy faktga emas, balki Eron afsonaviy an'anasiga asoslangan bo'lib, mustaqil tasdiqqa ega emas;
- 2) shu bilan birga, xuddi shu manbaning ichki xronologik tahlili (Kayoniylar sulolasi orqali) berilgan taxminiy sana arxeologik dalillar bilan mos keladi;
- 3) 1968-1981-yillarda Ark, Shahrison va ularning atrofida o'tkazilgan keng ko'lamli arxeologik qazishmalar shaharning eng qadimgi madaniy qatlamlari eramizgacha bo'lgan IV-III asrlarga oidligini uch mustaqil qazilma orqali tasdiqladi;
- 4) shu asosda Buxoroning yoshi ilmiy jihatdan 2300-2500 yil deb belgilanishi mumkin, bu ko'rsatkich Samarqand uchun arxeologik yo'l bilan aniqlangan yosh bilan uyg'un keladi;
- 5) masala hali yakunlangan emas yer osti suvlari kabi tabiiy-geografik omillar tufayli shaharning "mutlaq boshlanish nuqtasi"ni aniqlash uchun yangi, texnik jihatdan takomillashgan arxeologik tadqiqotlar davom ettirilishi zarur.

Kelgusi tadqiqotlar uchun Poykand xarobalarida 1981-yildan boshlangan qazishmalar, shuningdek Buxoro vohasining boshqa qadimgi tepaliklari (Qarnabcho'l, Malikcho'l, Zamonbobo) materiallarini shahar markazidagi qatlamlar bilan qiyosiy tahlil qilish alohida istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buxoro necha yoshda? // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1969-yil 11-yanvar, 8-son, 4-bet
2. Ya.G'.G'ulomov. Buxoroning yoshi haqida // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1969-yil 24-iyun, 114-son, 2-bet.
3. X.Muhammedov. Buxoro necha yoshda // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1975-yil 12-aprel, 73-son, 3-bet.
4. Buxoro necha yoshga kirgan // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1976-yil 18-dekabr, 252-son, 2-bet
5. A.Muhammadjonov. Buxoroning yoshi nechada. // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1985-yil 18-may, 97-son, 4-bet.
6. Eng qadimgi shahar // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1946-yil 7-aprel, 68-son, 4-bet.
7. Ya.G'.G'ulomov. Maxandaryo bo'ylarida qadimgi madaniyat // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1953-yil 28-oktyabr, 214-son, 4-bet.
8. Ya.G'.G'ulomov. Qadimgi madaniyat izlaridan // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1958-yil 8-dekabr, 241-son, 4-bet.
9. N.Yo'ldoshev. Jonajon o'lkamiz tarixini chuqur o'rganaylik // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1958-yil 1-noyabr, 219-son, 2-bet.
10. X.Muhammedov. Arxeologiya yangiliklari // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1959-yil 7-yanvar, 5-son, 4-bet.
11. Arxeologiya: noyob topilmalar // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1983-yil 7-iyul, 130-son, 2-bet.
12. A.Muhammadjonov. Konimex vohasida arxeologik izlanishlar // "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1975-yil 31-dekabr, 259-son, 4-bet.